



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (3)**



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
3-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
<b>Muxiddin Kalonov</b>	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
<b>Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
<b>Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich</b>	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
<b>Bobonarova Kamola</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
<b>Azizova Habiba Arslonovna</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
<b>Yusupova Dilbar Mirabidovna</b>	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
<b>Abdullaeva Zaynab Ruslanovna</b>	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
<b>Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
<b>Ravshanjon Azimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
<b>Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.</b>	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
<b>Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
<b>Erkin Temirovich Shodiev</b>	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
<b>Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich</b>	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
<b>Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li</b>	



AHOLI ISTE'MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI .....	118
<b>Rustamov Sheroz Oblokulovich</b>	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOBÐ-DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL .....	123
<b>Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich</b>	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQRISH .....	129
<b>Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva</b>	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
<b>Шафикова Луиза, Ойбек Камилов</b>	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА .....	150
<b>Омонтурдиева Диёра</b>	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQRISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
<b>Matkarimov Mansur</b>	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI .....	161
<b>Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi</b>	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	167
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'ALLIKNI MONETAR VA KO'P O'LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O'SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH .....	173
<b>Sotiboldiyev Asadbek Hasan o'g'li</b>	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	179
<b>Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich</b>	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
<b>Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o'g'li</b>	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW .....	192
<b>Ashurova Sitora Xusnitdin qizi</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	197
<b>Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов</b>	
JAHON ME'MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
<b>Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
<b>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi</b>	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
<b>Rajabova Malika Nuriddin qizi</b>	
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR .....	230
<b>Qosimova Gulyar Axmatovna</b>	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ .....	239
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI .....	242
<b>Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna</b>	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
<b>Saidov Suhrob Shodmonovich</b>	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
<b>Akbarova Kamola Akmaljonovna</b>	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI .....	263
<b>Karimov Eminjon Gopardjonovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI .....	270
<b>Shermatov Axror Abdixakimovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	275
<b>Ergash Bobobekov</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	281
<b>Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	285
<b>Qurbonova Rahima Jamshedovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
<b>Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
<b>Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	302
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	306
<b>Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna</b>	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
<b>Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li</b>	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
<b>Yusufova Laylo G'ayrat qizi</b>	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
<b>Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li</b>	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
<b>Норкулов Суннатбек Алишерович</b>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
<b>Vahidova Gulhayyo Arzi qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
<b>Raxmanova Ilmira Rustamovna</b>	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
<b>Toxirov Javlon Raximovich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
<b>Arslonov U. U.</b>	
RESURLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
<b>Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi</b>	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	373
<b>Saitqulov Suxrob Shavkatovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING KREDIT QOBILIYATINI BAHOLASH UCHUN SKORING MODELIDA SUN'Y INTELLEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....	380
<b>Komiljon Karimov</b>	
OLIY TA'LIM VA AMALIYOT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	386
<b>Karimova Xurshida Raximovna</b>	
QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	390
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li</b>	
ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	396
<b>Ли Марина Рудольфовна</b>	
O'ZBEKISTONDA YER RESURLARINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	402
<b>Xoshimova Sevara Baxromovna</b>	
FARMATSEVIKA IMPORT KOMPANIYALARIDA REKLAMA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH: "SHINING IMPEX" AJ MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	410
<b>Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xojiabdulla o'g'li</b>	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	417
<b>Turayev Baxtiyor Ergashevich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	421
<b>Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi</b>	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDIYALARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR KANALLARI VA ULARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI .....	427
<b>Davronbek Matyakubovich Matkarimov, Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li</b>	
O'ZGARUVCHILAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI REGRESSIYA MODELLARI ORQALI AMALIY TAHLILI .....	432
<b>Sakiyeva Ozoda Batirovna, Xushvaqtova Dilfuza Ramazon qizi</b>	
INSON KAPITALIGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	437
<b>Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTO-AKTIVLAR AYLANMASINI RIVOJLANTIRISH HAMDA BOZOR MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	444
<b>Khakimov Bekzod Ilhomjonovich</b>	
O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIMI MUASSASALARINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	453
<b>Atabayeva Yulduz Baxtiyar qizi</b>	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	457
<b>Ким Елена Радионовна</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI BOSHQARUV SAMARADORLIGI: HOLAT, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	464
<b>Abdurasulova Zarina Sayfiddin qizi</b>	
STRATEGIC MARKETING CAPABILITIES AND ENTERPRISE COMPETITIVENESS IN DIGITAL PLATFORM ECOSYSTEMS: A CONCEPTUAL SMPC MODEL FOR EMERGING MARKETS .....	471
<b>Bakhtiyor Ruziev Eshmuminovich</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ .....	477
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAÝTIRISHDA YASHIL INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING NAZARIY ASOSLARI.....	480
<b>Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o'g'li, Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich, Majidov Jamoladdin Komoliddinovich</b>	
MEHMONXONA XO'JALIGI SUBEKTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	485
<b>Gulomqodirova Ma'muraxon Saydumarxon qizi</b>	
QISHLOQ MANZILGOHLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA NAZARIY JIHATLARI .....	492
<b>Xusanova Sevara Shavkat qizi</b>	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	499
<b>Raxmatillo Mirolimovich Egamov</b>	
MOLIYAVIY HISOBOTNING KOMPILYATSIYASI BO'YICHA TOPSHIRIQLARNI BAJARISH TARTIBI.....	503
<b>A.Z.Avlokulov</b>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI, TASNIFLASH MEZONLARI VA SHAKLLARI .....	507
<b>Ibragimov Aziz Turayevich</b>	
IJTIMOY OMILLAR ASOSIDA BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI.....	514
<b>Isroilov Xurshidbek Rustambek o'g'li</b>	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI HAMDA ULARDA SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	521
<b>Raximov Azamat Hamroqulovich</b>	



KO'P QAVATLI UY-JOY OBYEKTLAGI LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	525
<b>Xikmatov Xakimxon Xamzaevich, Xalilov Nimatillo, Fattoyev Orzujon Xudoyqul o'g'li</b>	
TIJORAT BANKLARINING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	530
<b>Djumaniyazova Shaxnoza G'afurdjanovna</b>	
MINTAQA SHAHARLARIDA SANOAT ISHLAB CHIQARISH DARAJASI TAHLILI.....	535
<b>Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich</b>	
СТРАТЕГИЧЕСКИЙ МАРКЕТИНГ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ: КАК СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ ФОРМИРУЮТ ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ.....	539
<b>Убайдуллоева Сабрина Кодыровна</b>	
NAVOIY VILOYATIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI.....	545
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b>	



# NAVOIY VILOYATIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI

O'roqov Mamurali Odil o'g'li

Sharq universiteti, Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-6053-4498

E-mail: [mamuraliodilovich714@gmail.com](mailto:mamuraliodilovich714@gmail.com)

**Annotatsiya.** Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish holatining iqtisodiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot davomida hududdagi mehnat resurslari tarkibi, iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol aholi dinamikasi, bandlik darajasi hamda mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlar statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Shuningdek, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional omillar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida hududda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirish, norasmiy bandlikni qisqartirish va bandlik barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnat resurslari, bandlik, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy nafaol aholi, mehnat bozori, norasmiy bandlik, mehnat unumdorligi, hududiy iqtisodiyot, demografik omillar.

**Abstract.** An economic analysis of labor resource utilization in the Navoi region was conducted. The study assessed the structure of labor resources, the dynamics of the economically active and economically inactive population, employment levels, and structural changes in the labor market based on statistical data. In addition, demographic, socio-economic, and institutional factors influencing the efficiency of labor resource utilization were analyzed. Based on the findings, scientific and practical recommendations were developed to improve the efficient use of labor resources, reduce informal employment, and strengthen employment sustainability in the region.

**Key words:** labor resources, employment, economically active population, economically inactive population, labor market, informal employment, labor productivity, regional economy, demographic factors.

**Аннотация.** Проведён экономический анализ состояния использования трудовых ресурсов Навоийской области. В ходе исследования на основе статистических данных оценены структура трудовых ресурсов региона, динамика экономически активного и экономически неактивного населения, уровень занятости, а также структурные изменения на рынке труда. Кроме того, проанализированы демографические, социально-экономические и институциональные факторы, влияющие на эффективность использования трудовых ресурсов. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения, направленные на повышение эффективности использования трудовых ресурсов, сокращение неформальной занятости и обеспечение устойчивой занятости в регионе.

**Ключевые слова:** трудовые ресурсы, занятость, экономически активное население, экономически неактивное население, рынок труда, неформальная занятость, производительность труда, региональная экономика, демографические факторы.

## KIRISH

Hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida mehnat resurslaridan samarali foydalanish muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Mehnat resurslari ishlab chiqarish jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida iqtisodiy o'sish sur'atlari, mehnat unumdorligi va hududiy raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida mehnat resurslarini hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy imkoniyatlariga mos ravishda taqsimlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bandlik darajasining barqarorlashuvi, aholi daromadlarining oshishi va hududiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mehnat resurslari holatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish va ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.



Navoiy viloyati iqtisodiyotida mehnat resurslari hududning sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda viloyatda mehnat resurslari sonining o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, ularning jami aholiga nisbatan ulushida pasayish tendensiyasi shakllanmoqda. Bu holat demografik tarkibdagi o'zgarishlar, yoshlar ulushining ortishi hamda iqtisodiy faol va nafaol aholi nisbatidagi siljishlar bilan izohlanadi. Hududda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi mehnat bozorida malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, ayrim tumanlarda norasmiy bandlikning mavjudligi va mehnat resurslarining hududlar kesimida notekis taqsimlanganligi mehnat samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mehnat resurslaridan foydalanish holatini iqtisodiy tahlil qilish hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda muhim metodologik ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda statistik tahlil, dinamik qatorlar usuli, iqtisodiy taqqoslash, tarkibiy tahlil hamda iqtisodiy-demografik yondashuvlardan foydalanish mehnat bozori holatini kompleks baholash imkonini beradi. Ayniqsa, iqtisodiy faol aholi, bandlik darajasi, norasmiy mehnat ulushi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini tizimli o'rganish hududda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat resurslari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni shakllantirish hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

K.X. Abdurahmonov mehnat resurslarini ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lgan, zarur jismoniy va intellektual salohiyat hamda kasbiy malakaga ega aholi qismi sifatida baholaydi. Olimning yondashuviga ko'ra, mehnat resurslari tarkibiga nafaqat band aholi, balki ishlash imkoniyati va istagiga ega bo'lgan, vaqtincha mehnat faoliyatidan chetda qolayotgan hamda ish izlayotgan fuqarolar ham kiradi<sup>1</sup>.

R. Ubaydullaeva va Sh. Xolmo'minovning ta'kidlashicha, mehnat resurslari o'zining aqliy va jismoniy salohiyati orqali ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishga qodir bo'lgan mehnatga layoqatli kishilar majmuasini anglatadi<sup>2</sup>.

Z.A. Tolametova mehnat resurslariga quyidagicha ta'rif bergan: "O'zining aqliy va jismoniy mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan, mehnat qilish qobiliyatiga ega insonlar to'plamiga mehnat resurslari deyiladi"<sup>3</sup>

G.Q. Abduraxmonovning mehnat resurslariga bergan ta'rifiga ko'ra, "ijtimoiy foydali faoliyat sohasida ishlash uchun zarur bo'lgan jismoniy baquvvatlikka, salomatlikka, ta'lim darajasiga, madaniyatga, qobiliyatga, malakaga va kasbiy bilimlarga ega bo'lgan aholining bir qismidir"<sup>4</sup>.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, ilmiy abstraktlash, statistik hamda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish holatini iqtisodiy jihatdan baholash, mehnat bozori ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish holatini iqtisodiy tahlil qilish hududdagi mehnat bozorining tarkibiy o'zgarishlari hamda bandlik jarayonlarini baholash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda viloyatda mehnat resurslari sonining o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, 2012-yilda mehnat resurslari hajmi 544,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 597,4 ming kishiga yetgan. Bu raqamlar hududda mehnat salohiyatining miqdor jihatdan ortib borayotganini anglatadi.

Biroq mehnat resurslarining jami aholiga nisbatan ulushida pasayish kuzatilgan. 2012-yilda ushbu ko'rsatkich 61,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 54,6 foizgacha kamaygan. Mazkur holat viloyatda demografik tarkibning o'zgarishi, yoshlar va bolalar ulushining ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining mehnat resurslari tarkibidagi salmog'i yuqori darajada saqlanib, 2024-yilda 99,1 foizni tashkil etgan. Bu esa hududda asosiy mehnat salohiyati iqtisodiy faol yoshdagi aholi hisobiga shakllanayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1 Каландар Абдурахмонов. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт/Дарслик. Каландар Абдурахмонов. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти давлат корхонаси, Т.: 2019-145 б

2 Р.Убайдуллаева, Ш.Холмўминов Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси: Олий ўқув юртларининг иқтисодиёт соҳаси бўйича талабалар учун дарслик. / К.Абдурахмоновнинг умумий таҳрири остида; - Т.: "Ўқитувчи", 2001 - 68-б

3 Толаметова З.А. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. "Фан ва технология" 2017. 21 бет.

4 Абдурахмонова Г.Қ. Меҳнат иқтисодиёти: ўқув қўлланма / - Т.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. -138 б.

1-jadval. Navoiy viloyati mehnat resurslari tarkibi<sup>5</sup>

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Mehnat resurslari	544,1	546,8	543,1	540,3	543,5	547,2	552,0	555,8	555,2	564,5	570,6	584,5	597,4
Doimiy aholiga nisbatan, foizda	61,5	61,1	59,9	58,7	58,1	57,6	56,8	56,2	54,8	54,6	54,6	54,9	54,6
<b>Shu jumladan:</b>													
Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi	520,0	526,2	531,2	535,6	540,1	544,1	549,1	553,4	553,1	561,8	566,9	579,9	591,9
Doimiy aholiga nisbatan, foizda	58,8	58,8	58,6	58,2	57,7	57,2	56,5	56,0	54,6	54,3	54,3	54,4	54,1
Mehnat resurslariga nisbatan, foizda	95,6	96,2	97,8	99,1	99,4	99,4	99,5	99,6	99,6	99,5	99,4	99,2	99,1
Mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar	24,1	20,6	11,9	4,7	3,4	3,1	2,9	2,4	2,1	2,6	3,7	4,6	5,5
Doimiy aholiga nisbatan, foizda	2,7	2,3	1,3	0,5	0,4	0,3	0,3	0,2	0,2	0,3	0,4	0,4	0,5
Mehnat resurslariga nisbatan, foizda	4,4	3,8	2,2	0,9	0,6	0,6	0,5	0,4	0,4	0,5	0,6	0,8	0,9

Tahlillar davomida iqtisodiy faol aholi ulushida ham ma'lum o'zgarishlar aniqlangan. 2012-yilda iqtisodiy faol aholi mehnat resurslarining 80,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 76,6 foizgacha kamaygan. Aksincha, iqtisodiy nafaol aholi ulushi 19,1 foizdan 23,4 foizgacha oshgan. Mazkur jarayon hududda ayrim mehnat resurslarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatidan chetda qolayotganini anglatadi. Ayniqsa, iqtisodiy nafaol aholi ulushining ortishi mehnat bozorida bandlikni ta'minlash, kasbiy tayyorlash va yangi ish o'rinlarini yaratish zaruratini kuchaytiradi.

Viloyatda mehnat resurslaridan foydalanish holati sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan ham bevosita bog'liqdir. Navoiy viloyatining sanoatlashgan hudud sifatida shakllanishi malakali ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Shu sababli, hududda mehnat resurslarini tarmoqlar kesimida samarali taqsimlash, kasbiy malaka darajasini oshirish va norasmiy bandlikni qisqartirish muhim iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi(2-jadval).

2-jadval. 2024-yilda Navoiy viloyati hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi va ishsizlik darajasi<sup>6</sup>

Hududlar	Iqtisodiy faol aholi, ming kishi	Iqtisodiyotda bandlar, ming kishi	Ishsizlar, ming kishi	Ishsizlik darajasi, %
Navoiy viloyati	457.7	435.2	22.5	4.9
shaharlar:				
Navoiy sh.	105.4	101.3	4.1	3.9
Zarafshon sh.	46.7	44.8	1.9	4.2
G'ozg'on sh.	3.6	3.4	0.2	4.8
tumanlar:				
Uchquduq	21.6	20.5	1.1	4.9
Karmana	47	44.6	2.4	5.1

5 <https://www.navstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

6 Muallif ishlanmasi



Qiziltepa	60.1	56.9	3.2	5.4
Konimex	22.1	20.9	1.2	5.5
Navbahor	36.5	34.6	1.9	5.2
Nurota	37.2	35	2.2	5.8
Tomdi	6.6	6.3	0.3	5.2
Xatirchi	70.9	66.9	4	5.7

2017–2024-yillarda Navoiy viloyatida iqtisodiy faol aholi sonida o'sish kuzatilib, 445,7 ming kishidan 457,7 ming kishiga yetgan. Shu bilan birga, viloyatda band aholining ulushi oshib, ishsizlik darajasi 5,2 foizdan 4,9 foizgacha pasaygan. Mazkur holat hududda bandlikni ta'minlash va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijasini ko'rsatadi.

Viloyatning yirik shaharlari orasida Navoiy shahri iqtisodiy faol aholi soni va bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi hisoblanadi. 2024-yilda shaharda iqtisodiy faol aholi soni 105,4 ming kishini tashkil etib, ishsizlik darajasi 3,9 foizga teng bo'lgan. Zarafshon va G'ozg'on shaharlarida ham bandlik ko'rsatkichlari nisbatan barqaror shakllangan bo'lib, bu sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Tumanlar kesimida Xatirchi va Qiziltepa iqtisodiy faol aholi sonining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Xususan, 2024-yilda Xatirchi tumanida iqtisodiy faol aholi soni 70,9 ming kishini, Qiziltepa tumanida esa 60,1 ming kishini tashkil etgan. Mazkur hududlarda qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari mehnat resurslarining asosiy bandlik yo'nalishlari sifatida shakllangan.

Nurota, Konimex va Tomdi tumanlarida ishsizlik darajasi viloyatning boshqa hududlariga nisbatan yuqoriroq shakllangan. Bu holat hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasining cheklanganligi hamda iqtisodiy faoliyat turlarining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi bilan bog'liqdir. Shu sababli, ushbu hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Navoiy viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili hududda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sishiga bevosita ta'sir qilayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2017–2025-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmi 18,4 trln so'mdan 167,9 trln so'mgacha oshgan bo'lib, bu hudud iqtisodiyotida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatining kengayganligini anglatadi. Mazkur jarayonda mehnat resurslarining sanoat, xizmat ko'rsatish va qurilish tarmoqlariga faol jalb qilinishi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Viloyat iqtisodiyotida sanoat mahsuloti hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi hududiy yalpi mahsulot tarkibida sanoatlashgan hududlarning ulushi yuqoriligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Navoiy shahri, Zarafshon shahri hamda Karmana tumani sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanganligi sababli hududiy yalpi mahsulotga eng katta hissa qo'shayotgan hududlar hisoblanadi. Ushbu hududlarda yirik sanoat korxonalari, kon-metallurgiya majmualari va logistika infratuzilmasining rivojlanganligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirmoqda.

Qiziltepa va Xatirchi tumanlarida iqtisodiy faol aholi sonining yuqoriligi qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari orqali hudud iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur hududlarda mehnat resurslarining son jihatdan yuqoriligi iste'mol bozori va xizmatlar hajmining kengayishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Konimex, Tomdi va Nurota tumanlarida iqtisodiy faoliyatning nisbatan cheklanganligi sababli yalpi hududiy mahsulotdagi ulush pastroq shakllangan.

Tahlillar natijasida hududda mehnat resurslaridan samarali foydalanish yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sishi, xizmatlar sektorining kengayishi va o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Ayniqsa, sanoatlashgan hududlarda mehnat unumdorligining yuqoriligi aholi daromadlari va iqtisodiy faollik darajasining ortishiga xizmat qilmoqda. Shu sababli, hududlarda mehnat resurslarini iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha oqilona taqsimlash va malakali ishchi kuchini shakllantirish hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar natijasida Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari hududlar kesimida keskin tafovutlanishi aniqlandi. Xususan, Navoiy va Zarafshon shaharlari hamda Karmana tumanida sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanganligi sababli bandlik darajasi va iqtisodiy faollik yuqori shakllangan. Aksincha, Konimex, Tomdi va Nurota tumanlarida iqtisodiy faoliyatning cheklanganligi, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ish o'rinlarining kamligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligiga olib kelmoqda (3-jadval).

3-jadval. Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri<sup>7</sup>

Ko'rsatkichlar	2017-yil	2025-yil	O'zgarish miqdori	O'sish sur'ati
Yalpi hududiy mahsulot, mlrd so'm	18 456,2	167 964,6	+149 508,4	9,1 barobar
Sanoat mahsuloti, mlrd so'm	13 072,9	195 226,4	+182 153,5	14,9 barobar
Xizmatlar hajmi, mlrd so'm	3 068,4	25 733,6	+22 665,2	8,4 barobar
Qurilish ishlari, mlrd so'm	1 313,6	16 192,6	+14 879,0	12,3 barobar
Chakana savdo aylanmasi, mlrd so'm	4 348,5	17 863,4	+13 514,9	4,1 barobar
Iqtisodiy faol aholi, ming kishi	445,7	457,7*	12,0	102,7 %
Band aholi, ming kishi	422,4	435,2	12,8	103,0 %
Ishsizlik darajasi, %	5,2	4,9	-0,3	94,2 %

Tahlil natijalariga ko'ra, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lgan hududlarda yalpi hududiy mahsulot hajmi, xizmatlar sektori va o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlari ham nisbatan yuqori shakllangan. Shu bilan birga, iqtisodiy faollik darajasi past hududlarda ishsizlik ko'rsatkichlarining yuqoriligi va aholi daromadlarining cheklanganligi kuzatilmoqda. Bu esa hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holat mehnat resurslarini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi asosida oqilona taqsimlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlari Navoiy viloyatida iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi mehnat resurslari faolligining ortishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoat mahsulotlari hajmining 182,1 trln so'mga oshgani hududda ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat resurslaridan foydalanish ko'lami kengayganini anglatadi. Shu bilan birga, qurilish ishlari hajmining 12,3 barobarga o'sishi infratuzilma va investitsiyaviy loyihalarning kengayishi natijasida yangi mehnat talabining shakllanganligini ko'rsatadi.

Hududda xizmatlar va chakana savdo hajmlarining sezilarli oshishi mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha diversifikatsiyalanayotganini bildiradi. Xususan, xizmatlar hajmining 22,6 trln so'mga ortishi aholining iqtisodiy faolligi va ichki iste'mol bozori kengayganini anglatadi. Natijada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi nafaqat ishlab chiqarish hajmlarining o'sishiga, balki hududda iqtisodiy barqarorlik va daromadlar bazasining mustahkamlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish holatini iqtisodiy tahlil qilish natijasida hududda mehnat resurslari sonining ortib borayotgani, biroq ularning iqtisodiy faollik darajasida hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, sanoatlashgan hududlarda bandlik va mehnat unumdorligi yuqori shakllangan bo'lsa, ayrim tumanlarda iqtisodiy faoliyatning cheklanganligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat hududiy mehnat bozori rivojlanishida nomutanosibliklar mavjudligini va mehnat resurslari bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarni qayta tizimlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar davomida mehnat resurslaridan samarali foydalanish yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar hajmi va aholi daromadlarining o'sishiga ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi. Xususan, iqtisodiy faol aholining barqarorlashuvi hamda bandlik darajasining oshishi hudud iqtisodiyotida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Shu sababli, mehnat resurslarini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi asosida oqilona taqsimlash va malakali ishchi kuchini shakllantirish hududiy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hududlarda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari sust rivojlangan tumanlarda kichik sanoat zonalarini hamda xizmatlar infratuzilmasini zamonaviy talablar asosida kengaytirish zarur. Bu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faol aholi ulushini oshirish imkoniyati kengayadi.

Mehnat bozorida hududiy tafovutlarni kamaytirish uchun kasb-hunar va qayta tayyorlash dasturlarini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos ravishda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, hududdagi yoshlar hamda norasmiy band bo'lgan aholining zamonaviy kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish mehnat unumdorligini oshirish va viloyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

7 Muallif ishlanmasi



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari. Darslik. – Toshkent, 2011. – 494 b.
2. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: Mehnat, 2009. – 706 бет.
3. Abdurahmonov Q.X. va boshq. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – Т., 2009. – 237 b.
4. Убайдуллаева Р., Холмўминов Ш. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси: олий ўқув юртларининг иқтисодиёт соҳаси бўйича талабалари учун дарслик / К. Абдурахмоновнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 68 б.
5. Абдурахмонова Г.Қ. Меҳнат иқтисодиёти: ўқув қўлланма. – Т.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 138 б.
6. Маслова Н.С. Эффективная занятость и рынок рабочей силы. – М.: Наука, 1992.
7. Толаметова З.А. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Т.: Фан ва технология, 2017. – 400 бет.
8. Толаметова З.А. Иқтисодиётни модернизациялаш жараёнида меҳнат бозорини ривожлантириш йўналишлари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2014. – 303 бет.
9. Толаметова З.А. Меҳнат бозори ва аҳоли бандлиги. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2005.
10. Улуғмурадова Н.Б. Меҳнат иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2021. – 35 бет.
11. <https://www.navstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (3)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---